

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

YULDASHEV NODIRBEK ABDUMANNOB O'G'LI

**SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB TEST SAVOLLARINI TUZISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Texnika fanlari misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Yuldashev Nodirbek Abdumannob o‘g‘li

Sun‘iy intellektdan foydalanib test savollarini tuzish metodikasini takomillashtirish
(texnika fanlari misolida).....5

Юлдашев Нодирбек Абдуманобович

Совершенствование методики создания тестовых вопросов с использованием
искусственного интеллекта (на примере технических наук).....25

Yuldashev Nodirbek Abdumannob ugli

The improvement of method for creating test questions using artificial intelligence
(in technical sciences subjects).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

YULDASHEV NODIRBEK ABDUMANNOB O‘G‘LI

**SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB TEST SAVOLLARINI TUZISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (Texnika fanlari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped 8387 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat texnika instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.astiedu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Danish Ather

texnika fanlari falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Mamadalieva Lola Kamiljanovna

texnika fanlari falsafa doktori, professor

Abdullaeva Ozodaxon Safibullaevna

pedagogika fanlari falsafa doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat texnika institutida huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.124.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 1700000, Andijon shahri, Boburshox ko'chasi, 56-uy. Tel.: (74) 224-10-07, faks: (74) 228-76-75, e-mail: astiinfo@edu.uz, Andijon davlat texnika instituti 3-binosi, 2-qavat, 313-xonasi)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat texnika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 1700000, Andijon shahri, Boburshox ko'chasi, 56-uy. Tel.: (74) 224-10-07)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi №____-raqamli reestr bayonnomasi).



U. M. Turdialiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor

Sh. X. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

K.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan taraqqiyoti jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda ta'lim tizimlarida o'zlashtirishlarni baholash, test olish va tuzish jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirish va ularni takomillashtirish, axborot texnologiyalarining zamonaviy usullariga asoslanadi. Shu jumladan, test tuzish jarayonlariga raqamli ishlov berish usullarini, aniqligi yuqori bo'lgan matematik modellarni, sun'iy intellekt usullari hamda dasturiy vositalarni ta'lim sohalarida keng qo'llash asosiy masalalardan biridir. Pedagogika sohasida zamonaviy usullarni tadbiq qilishdagi tadqiqotlar murakkab jarayon bo'lib, ayniqsa sun'iy intellekt (SI) yordamida test tuzish jarayonlarini avtomatlashtirish, matn hamda ovozli xabarlarini tezkor aniqlash va ularni sinflash, ovozli xabarlarini matn holatiga olib kelish texnologiyasini qo'llash va tabiiy tilni qayta ishlash (TTQI) usullaridan foydalanib, test tuzish jarayonidagi xatoliklarni minimallashtirish metodikalarini takomillashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Dunyoda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va tinglovchilarning bilimlarini inson omilisiz adolatli baholash jarayonini ta'limda qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Mazkur soha bo'yicha xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan: AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va Yaponiya davlatlarida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va sun'iy intellekt texnologiyasi yordamida test tuzish jarayonlarini avtomatlashtirish ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda avtomatik savol yaratish (ASY) va baholash orqali o'qituvchilar uchun vaqtni tejashga erishish, o'zlashtirilgan bilimlarni baholash uchun sifatli savollar tuzish va ularni inson omilisiz adolatli baholash metodikasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ta'limni isloh qilish, ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etish orqali tizimni takomillashtirish va ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi PQ-4996-sonli qarori mamlakatimizda sun'iy intellektni ta'lim tizimiga keng joriy qilish va ta'lim sohasidagi faoliyatni sun'iy intellektni qo'llagan holda tizimli ravishda yo'lga qo'yish va samarali tashkil etishga zamin yaratdi. Moslashuvchan ta'lim tizimini yaratish va ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt vositalarini tatbiq qilish, ta'lim berishda baholash jarayonini avtomatlashtirish, talabalarning erishgan natijalariga va bilim olish istagiga muvofiq individual metodikalarni ishlab chiqishga bo'lgan talab shu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishiga turtki bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5297046> (Murojaat sanasi: 11.04.2025)

qarori²da iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohani jadallik bilan rivojlantirish, shuningdek, ilmiy, intellektual va moliyaviy resurslarni birlashtirib, ilmiy hamda innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga keng joriy etishni, ilm-fanni uzluksiz ravishda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va belgilashni, shuningdek, ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga muvofiq tezkor modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida³gi PF-6079-son Farmoni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida⁴gi PQ-5234-son qarorga muvofiq, "Sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarida tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish"ni amalda joriy qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida⁵gi PQ-358-son hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV ustuvor yo'nalishi – "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Respublikamizda ko'proq test tuzishning an'anaviy metodlari, onlayn test platformalari va dasturiy ta'minot orqali testlarni yaratish bo'yicha ilmiy ishlar mavjud. Sun'iy intellekt yordamida test tuzish borasida esa ilk izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, hali keng qamrovli, algoritmik yechimga asoslangan metodikalar yetarli emas. Mazkur muammoni ilmiy jihatdan o'rganish jarayonida A.M.Kasimaxunova, J.I.Fayzullayev, Sh.A.Pazilova, O.S.Abdullayeva, Sh.M.Kamolov, A.Sh.Axmedov, A.X.Sulliyev, A.D.Raxmatov, U.Ziyomuxammedova, Sh.A. Nazirov⁶ kabi olimlar dasturlash

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/5073447> (Murojaat sanasi: 21.05.2024)

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957> (Murojaat sanasi: 13.05.2024)

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5234-son qarori <https://lex.uz/docs/-5603319?ONDATE=26.08.2021%2000> (Murojaat sanasi: 17.01.2024)

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qarori <https://www.lex.uz/docs/-7158604> (Murojaat sanasi: 09.04.2025)

⁶ Kasimaxunova A. Fototermobatareyalarning ekspluatatsion ish rejimlarini tadqiqot qilish: Texnika fan. dok. diss. – Toshkent, 2003. – 220 b.; Fayzullayev J.I. Kompyuter grafikasi va algoritmik modellashtirish. – Toshkent: TDPU,

texnologiyalari, dasturiy ta'minot, qurilmalararo aloqalarni ta'minlovchi interfeys va algoritmlar, shuningdek inson va mashina o'rtasida interfeys tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan A.V. Zajigalkin, E.S. Chervakova, B.Ya. Avdeyev, V.A. Meshyeryakov, Yu. Revich, F. Perea, G.V. Rossum, G.Divald, M.H. Fattoh, E. Ibrohim va E. Haggag⁷ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar uslubiy jihatdan asosan sun'iy intellekt, tilshunoslik va ta'lim texnologiyalari kesishmasida joylashgan bo'lib, avtomatik savol yaratish tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar xususan, R.M. Foster⁸ning "Boshqariladigan ritorik tuzilma nazariyasi yordamida avtomatik ravishda bir nechta tanlov savollari yaratadigan dasturiy ta'minotdan chiqishni yaxshilash" mavzusidagi ishi ushbu sohada muhim hisoblanadi.

Xorijiy olimlar, jumladan, J. Carbonell, A. Echihabi, D. Marcu, H.T. Zheng, J.Han, J. Chen, O. Keklik, T. Tuğlular, S. Tekir, K. Seta, M. Heilman⁹ va boshqalar avtomatik savol yaratish tizimlari ustida chuqur tadqiqotlar olib borganlar. Ular matndan avtomatik faktik savol yaratish va intellektual test olish tizimlari uchun kengaytirilgan arxitektura modellarini aniqlagan hamda bu tizimlarning pedagogik qo'llash imkoniyatlarini ham tahlil qilganlar. O. Keklik, T. Tuğlular va S. Tekir o'zlarining ilmiy ishlarida "Semantik rol belgilaridan foydalangan holda qoida asosida avtomatik savol yaratish" texnikasini tadqiq qilgan bo'lsalar, M. Heilman va N. A. Smith esa "O'zgarishlarni ko'paytirish va tartiblash orqali savollarni yaratish" kabi ilg'or dasturlar hamda ularni o'qitish metodikalariga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganib chiqqanlar.

2017. – 198 b.; Pazilova Sh.A. Sun'iy intellekt asosida masalalar yechish metodlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. – 176 b.; Abdullayeva O.S. Axborot texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish // Professional ta'lim. – 2019. – №2. – B. 34-40.; Kamolov Sh.M. Algoritmik tillar va ularning dasturiy interfeyslarda qo'llanilishi. – Toshkent: TATU, 2016. – 159 b.; Axmedov A.Sh. Dasturlashda zamonaviy yondashuvlar va mobil platformalar. – Toshkent: Sharq, 2018. – 204 b.; Sulliyev A.X. Elektrotexnika materiallari. – Toshkent: O'qituvchi, 2024. – 198 b.; Raxmatov A.D. Axborot tizimlari xavfsizligi va algoritmik yondashuvlar // Muhandislik innovatsiyalari. – №3, 2021. – B. 41-48.; Ziyomuxammedova U. Ta'lim jarayonida dasturlash va sun'iy intellektdan foydalanish. – Toshkent: TDPU, – 134 b.; Nazirov Sh.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning ta'limdagi imkoniyatlari // Ilmiy axborotlar. – Toshkent, 2019. – B. 73-80.

⁷ Zajigalkin A. V., Chervakova E. S. Generation of ultrashort laser pulses with a variable repetition rate // Russian Journal of Laser Research: № 6, 2019. – P.551-558.; Fattoh M. H., Ebrahim E. E., Haggag E. A. Semantic question generation using artificial immunity (Sun'iy immunitetdan foydalangan holda semantik savol yaratish) // International Journal of Computer Science & Information Technology. – (IJCSIT), 9(2), 2017. – P. 1-14.; Perea F. Adhesive small bowel obstruction: predictive value of oral contrast administration on the need for surgery. Rev Esp Enferm Dig. 96, 2004. – P. 191-200. Avdeyev B. Ya. Ferromagnetic particle orientation mathematical model in magnetic field // MATEC Web of Conferences, 2018. – P.224.; Meshcheryakov V. A. Behavior of separatrix of one static model at infinity // Physics of Particles and Nuclei Letters, №7, 2010. – P. 84.;

⁸ Foster R. M. Improving the Output of a Software That Automatically Generates Multiple Choice Questions Using a Theory of Controlled Rhetorical Structure // Intelligent Tutoring Systems. Lecture Notes in Computer Science, № 60. Springer. – Berlin: Heidelberg, 2010. – P. 145.

⁹ Echihabi A., Marcu D. Generating questions from text // In Proceedings of the tenth conference on European chapter of the Association for Computational Linguistics, 2003. – P. 165-172; Zheng H.T., Han J., Chen J., Sangaya A. A Novel Framework for Automatic Question Generation in Chinese Based on Multi-Feature Neural Network Model // Computer Science and Information Systems. – №15, № 3, 2018. – P. 487-499.; Keklik O., Tuğlular T., Tekir S. Rule-based automatic question generation from Turkish texts using semantic role labeling // In Proceedings of the 24th Signal Processing and Communication Application Conference (SIU). 2016. – P. 99.; Heilman M., Smith N. A. Question generation via text-to-text transformation // Proceedings of the Human Language Technologies: The Annual Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics. 2010. – P. 134.

Ushbu tadqiqot natijalarini o'rganish va tahlil qilish jarayonlari shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharq mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda bu turkumdagi ilmiy ishlar yetarlicha o'rganib chiqilmaganligi, natijada ta'lim tizimida mavjud muammolarni hal qilinmaganligi sababli garchi test olish jarayonlari avtomatlashtirilgan bo'lsa-da, test tuzish hamda baholash tizimlarida ilg'or texnologik vositalardan foydalanilmayotganligini va ularga katta ehtiyoj borligini ko'rish mumkin. Bu ilmiy tadqiqot ishimizda eng ilg'or SI texnologiyalari ishlatildi va tadbqiq qilinisdagi muammolar hal qilindi, ayniqsa foydalanuvchi oynasi (User Interface) anchagina soddalashtirildi. Yuqorida qayd etilgan muammo hamda ularning yechimlari ushbu dissertatsiya ishining vazifalaridan o'rin olgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ish bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon mashinasozlik institutida bajarilishi 2019-2023-yillarga mo'ljallangan ERASMUS+ dasturi asosida "MECHAUZ "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida modernizatsiya qilish" deb nomlangan fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak muxandislarning ta'lim jarayonida bilimni nazorat qilishni, savol tuzish va baholashni sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirish, test tuzish uchun sarflanadigan vaqtni minimallashtirish hamda samaradorlikni oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

texnika fanlari uchun test savollari tuzishning mavjud uslublarini o'rganish, sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarining savol generatsiyasi sohasida qo'llanishini tahlil qilish;

texnika fanlari misolida gibrid metodikani ishlab chiqish, unda sun'iy intellektning sintaktik va semantik tahlilga asoslangan avtomatik savol tuzish algoritmini takomillashtirish, sun'iy intellektning o'rni va funksional bosqichlarini aniqlashtirish;

yangi ishlab chiqilgan metodikani prototip platforma yoki kod orqali sinovdan o'tkazish, tajriba asosida samaradorligini baholash hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, inson tomonidan tuzilgan testlar bilan sifat jihatdan taqqoslash;

metodikaning texnika fanlarida tatbiq etilishi bo'yicha xulosalar chiqarish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash hamda uni boshqa fanlarga (tabiiy fanlar, gumanitar fanlar) moslashtirish imkoniyatlarini tavsiflash;

Tadqiqotning obyekti texnika oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlarni o'qitishda sun'iy intellekt yondashuvlari, xususan avtomatik savol tuzish metodikasi orqali o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Tadqiqot predmeti texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni baholashda sun'iy intellekt vositalari orqali avtomatik savol tuzish texnologiyalarini yaratish, metodik jihatdan asoslash va amaliyotda qo'llash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda sun'iy intellekt yordamida avtomatik savol tuzish jarayoniga oid pedagogik, axborot texnologiyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va algoritmik modellashtirish; avtomatik savol yaratish tizimi (ASY) asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazish, o'qituvchilar va talabalar bilan kuzatish, so'rovnoma va intervyu tashkil etish, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan savollarni test sinovlari orqali baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnika fanlari uchun test savollarini yaratishning mavjud uslublari tizimli ravishda o'rganilib, ularning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. An'anaviy test tuzish metodlarining cheklovlari, xususan, vaqt sarfi, subyektivlik, savollar sifati va murakkablik darajasini nazorat qilishdagi kamchiliklari aniqlab berildi. Shuningdek, ushbu metodikalar bilan solishtirilgan holda sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini qo'llashning samarali jihatlari aniqlanib, texnika fanlari uchun yangi metodik asos yaratildi;

sintaktik va semantik tahlilga tayangan holda gibridd metodika ishlab chiqildi, unda sun'iy intellektning o'rni hamda funksional bosqichlari qat'iy belgilandi. Mazkur metodika turli fan sohalarida mavjud bo'lgan nazariy bilimlarni texnika fanlariga moslashtirish imkonini berdi. Gibridd yondashuvda an'anaviy test tuzish uslublari bilan bir qatorda, mashinaviy o'qitish algoritmlari va semantik tarmoq asosidagi avtomatik savol yaratish jarayonlari takomillashtirildi;

ishlab chiqilgan gibridd metodika dasturiy vosita (prototip platforma yoki kod) ko'rinishida amaliyotga tatbiq qilindi va oliy ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba o'tkazish jarayonida avtomatik tarzda yaratilgan savollar sifat jihatidan inson tomonidan tuzilgan savollar bilan taqqoslandi, natijalar matematik-statistik tahlil orqali isbotlandi hamda yangi metodikaning samaradorligi, aniqligi va vaqt tejamlorligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi;

taklif etilgan metodika texnika fanlariga tatbiq etilishi jarayonida samarali ekanligi bo'yicha xulosalar berildi. Shu bilan birga, uning boshqa fanlarga (tabiiy fanlar, gumanitar fanlar) moslashtirilish imkoniyatlari takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy tajribalar va mahalliy baholash tizimini tahlil qilish asosida avtomatik savol yaratish modeli takomillashtirilgan va sun'iy intellekt modeli asosida dasturiy majmua yaratilgan;

sun'iy intellektga asoslangan tekst hamda audio formatdagi ma'lumotlarni qabul qila oluvchi gibridd holatda ishlovchi algoritm ishlab chiqilgan va "Sun'iy intellektidan foydalanib avtomatik savol yaratish" uchun ilmiy ishlanma ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan;

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunidan kelib chiqqan holda ochiq va tanlov savollari yaratuvchi model uchun veb-dastur yaratilib, test tuzish, test olish va baholashni avtomatlashtiruvchi tabiiy tilni qayta ishlash model arxitekturasi takomillashtirilgan;

yaratilgan model, algoritm va majmua asosida texnika fanlarini o'qitishda foydalanish uchun "Sun'iy intellektga kirish" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan; (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga 3-ilova, ISBN: 978-9910-11-080-1);

fan mazmunidan kelib chiqqan holda test olish, tuzish va natijalarni baholash tizimlarini avtomatlashtirish, baholangan natijalarning tahlil oynasi takomillashtirildi va unga moslashtirilgan interfeys ishlab chiqilgan hamda tajriba-sinov ishlari natijalari asosida samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga pedagogik, metodik yondashish, o'qituvchi va talabalarni test olish va topshirish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni o'rganishda respublikamiz va xorijlik olimlar tajribalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos metodikalarning tanlanganligi, tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, muammo bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida o'zining nazariy va amaliy tasdig'ini topganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodikalar vositasida asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi hamda xorijiy ilmiy-uslubiy jurnallarda nashr etilgan ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar, tadqiqot muammosi bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovlari, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati test tuzish jarayonlarini avtomatlashtirishda tezkor algoritmlar ishlab chiqish uchun nazariy va metodik asoslar, tekst va audio formatdagi ma'lumotlardan bir vaqtning o'zida ishlab savol yarata oladigan algoritm, model va uning veb-dasturda amaliy natijalarni taqdim qilish uchun ishlab chiqilgan interfeyslari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ta'lim tizimlarida test tuzish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirishda, o'qituvchilarning test tuzish va natijalarni baholashga sarflanadigan vaqtlarini tejashda, baholash tizimida inson omilini yo'qotgan holda natijalarning shaffofligini ta'minlashda va talabalar natijalaridan e'tirozlarini kamaytirishda, talabalar uchun natijalarini elektron tahlil qilingan formatda ko'ra olishda, kelgusida tadqiqot ishidan o'quv va metodik qo'llanmalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sun'iy intellektdan foydalanib, test savollarini tuzish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

pedagogik kibernetikani (ya'ni boshqaruv va axborot nazariyasi) avtomatik savol yaratish texnologiyalari bilan integratsiyalashuviga asoslangan, texnik oliy o'quv yurtlarining o'quv sharoitlariga moslashtirilgan va bilimlarni o'zlashtirish darajasini avtomatik diagnostika qilishni ta'minlovchi o'qitish metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu modelning BERT yoki ChatGPT kabi mavjud modellar bilan raqobatlasha olishi va ularda mavjud bo'lmagan avtomatik baholash imkoniyatiga ega ekanligini aniqlashtirishga oid takliflardan Andijon mashinasozlik institutida

bajarilishi 2019-2023 yillarga mo'ljallangan ERASMUS+ dasturi asosida "MECHAUZ "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida modernizatsiya qilish" deb nomlangan fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Andijon mashinasozlik institutining 2024-yil 13-apreldagi 38-05/877 sonli ma'lumotnomasi). Natijada texnik yo'nalishlar talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholash uchun avtomatik baholash imkoniyatiga ega model asosida baholash tizimini modernizatsiya qilishga erishilgan;

bo'lajak muhandislarning o'quv darajasi va o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda tahrirlovchi, materialni o'zlashtirish motivatsiyasi va chuqurligini oshirishga yordam beruvchi hamda o'quv vazifalarini shakllantirishga moslashtirilgan yondashuv asosida talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi avtomatik savol yaratish modelini ishlab chiqishga oid usul va tavsiyalardan "Sun'iy intellektdan foydalanib avtomatik savol yaratish" uchun ilmiy ishlanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat maussasasining 2025-yil 27-martdagi №008762-sonli guvohnomasi). Natijada talabalarning fan bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalarini sun'iy intellektdan foydalanib avtomatik baholash tizimi metodikasini takomillashtirishga erishilgan.

Ta'lim boshqaruv tizimlarida matn asosida avtomatik savol yaratish, shuningdek, audio formatdagi materiallarni matnga aylantirib, ulardan savol generatsiya qilish algoritmi va interfeysini ishlab chiqish hamda ta'lim sifati indikatorlarini maqsadga muvofiq, tizimli, izchil va amaliy harakatlar asosida belgilovchi ko'rsatkichli-darajaviy yondashuvni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan texnika yo'nalishi talabalarining bilim darajasini baholashda o'quv jarayoni prognostikasi, egallangan bilimlarni eksperimentlar bilan solishtirish, ularni tekshirish, tajribaviy tasdiqlash va uyg'unlashtirish orqali intellektual koeffitsiyentni aniq belgilab olishda foydalanilgan. (OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazining 2025-yil 22-yanvardagi 02/01-01-24-son ma'lumotnomasi). Natijada "Sun'iy intellekt", "Axborot texnologiyalari va tizimlari" bakalavriat yo'nalishi talabalarining inson omilisiz odilona baholash tizimi yaratilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamalardan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 ta respublika ilmiy-uslubiy jurnallarida, 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiya ishining tuzilishi va xajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning “**Testlashtirishning nazariy-metodik asoslari va sun‘iy intellektning ta‘limdagi o‘rni**” deb nomlanuvchi birinchi bobida, test orqali bilim va ko‘nikmalarni baholashning usullari sifatida rivojlanish tendensiyalari, ta‘lim tizimiga sun‘iy intellektning integratsiyasi va ta‘limning raqamli transformatsiyasi, shuningdek sun‘iy intellekt yordamida baholashning test usulini takomillashtirish, test savollarini generatsiya qilishning avtomatlashtirilgan tizimni yaratishdan, o‘qitishni boshqarish tizimlari hamda avtomatik tarzda savol tuzishda tabiiy tilni qayta ishlash usullarining nazariy tahlili keltirilgan.

Test sinovlarini baholashning innovatsion usuli sifatida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, test o‘quvchilarning bilim darajasini baholash shakli sifatida mazmunli va sifatli testlarni tayyorlash, ularni amalga oshirish, shuningdek o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun olingan natijalarni keyingi tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Test sinovlarini turli xil ko‘rsatkichlarga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Test sinovlarining sinflanishi (tasnifi)

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida bilimlarni baholash vositasi sifatida ko‘p tanlovli savollardan foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bunday test topshiriqlarining afzalliklari: bilim va kognitiv ko‘nikmalar darajasini obyektiv aniqlash qobiliyati, baholashning qulayligi va katta guruhlarda qo‘llash imkoniyatidir. Ana shu afzalliklari tufayli ishga joylashish va oliy ta‘lim muassasalariga kirishda test sinovlaridan keng foydalanilmoqda. Tahlillar shuni

ko'rsatadiki, testlar yordamida ma'lum bir kurs bo'yicha rejalashtirilgan o'quv natijalariga erishilganligini baholash mumkin. Bu esa, o'z navbatida o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqish va zarur bo'lganda tuzatish kiritish imkonini beradi. Biroq, barcha afzalliklarga qaramay, yuqori sifatli test topshiriqlarini ishlab chiqish muhim vaqtni va ko'p mehnatni talab qiladigan jarayondir. Shu munosabat bilan ko'plab tadqiqotchilar tabiiy til asosida testlarni yaratishni avtomatlashtirishga turli yondashuvlarni taklif qilmoqdalar. Test topshiriqlarini avtomatik yaratish sohasidagi metodlar va yondashuvlarni beshta asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

- a) mashinali o'rganishga asoslangan metodlar;
- b) neyron tarmoqlardan foydalanish metodlari;
- c) daraxtga asoslangan metodlar;
- d) qoidalar yoki belgilardan foydalanadigan metodlar;
- e) bir necha yondashuvlar elementlarini birlashtirgan gibrid metodlar.

Tabiiy til deganda odamlar kundalik muloqotlarida foydalanadigan tillar, masalan, o'zbek, rus, ingliz, shved yoki ispan tillari tushuniladi. Tabiiy tillar noaniq bo'lishi, turli xil lug'atlar va ko'p ma'noli so'zlarni o'z ichiga olishi mumkin, shuningdek, turli urg'ular bilan talaffuz qilinadi. Bunday qiyinchiliklarga qaramay, odamlar tabiiy tilni sezilarli qiyinchiliklarsiz tushuna oladilar.



2-rasm. Tabiiy tilni qayta ishlash konveyerining arxitekturasini, shu jumladan tabiiy tilni qayta ishlashning ba'zi umumiy bosqichlari

Tabiiy tilni qayta ishlash (TTQI) – bu kompyuter fanlari, sun'iy intellekt va tilshunoslikni birlashtirgan soha bo'lib, foydali dasturlarni ishlab chiqish uchun tabiiy til matni yoki nutqini tushunish va tuzish uchun kompyuterlardan qanday foydalanish mumkinligini o'rganadi. Ko'pincha tahlil qilish uchun matnli hujjatlarga qo'llaniladigan bir nechta muhim TTQI bosqichlari mavjud. 2-rasmda test ishi yaratish jarayonida spetsifikatsiya hujjatlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi umumiy TTQI bosqichlaridan iborat oddiy TTQI konveyeri misoli ko'rsatilgan.

Ushbu qadamlar ishlab chiqilayotgan dasturga qarab birgalikda yoki alohida ishlatilishi mumkin. TTQIning dastlabki bosqichi hisoblangan matn segmentatsiyasi matnni lingvistik jihatdan mazmunli birliklarga bo'lish vazifasidir. Gaplarni segmentatsiyalash va tokenizatsiya qilish matnni segmentatsiyalash


bosqichining bir qismidir. Gapni segmentatsiyalash – matnni gaplarga bo‘lish jarayonidir. Tokenizatsiya, shuningdek, so‘z segmentatsiyasi sifatida ham tanilgan, ajratuvchi sifatida bo‘shliqlardan foydalanish kabi oldindan belgilangan qoidalar to‘plamiga asoslanib, jumlani tokenlar deb ataladigan alohida so‘zlarga ajratishni o‘z ichiga oladi.

Bugungi ta’limning axborotlashuvi sharoitida talabalarning bilimlarini baholash jarayonini takomillashtirish, xususan, sun’iy intellekt yordamida avtomatik savol tuzish metodikasini ishlab chiqish masalalari jamiyat talab etayotgan muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida avtomatik savol yaratish tizimlarini joriy etish, ularni amaliyot muhitiga samarali tatbiq etish va sifatini nazorat qilish kabi vazifalar o‘z zaruriyatiga ega ekanligi tadqiqot mavzusining haqiqatda dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Sun’iy intellektdan foydalanib test savollarini tuzish jarayoni algoritmi va metodikasini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning nazariy-pedagogik va texnologik asoslari, sun’iy intellekt yordamida test savollarini yaratishning zamonaviy yondashuvlari, avtomatlashtirilgan savol yaratish (ASY) tizimining dasturiy-metodik ta’minoti hamda ushbu tizimni takomillashtirilgan “Didactronix” deb nomlangan metodikaning modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, ASY tizimini ta’lim jarayoniga joriy etishning shart-sharoitlari aniqlangan.

Tadqiqot jarayonida texnika fanlarini o‘qitishda test savollarini yaratishning sifatini oshirish va avtomatlashtirish maqsadida “Intellektual algoritm” metodi taklif etildi. Metodning afzalliklari quyidagilardan iborat: savol tuzish jarayonini avtomatlashtirish; murakkab bilim sohalarini qamrab olish imkoniyati; ta’lim oluvchilarning bilimni aniqlashda xolislik va aniqlikni oshirish; test savollarini tezkor yaratish; bilimlarni tizimli baholash; o‘quv jarayonini raqamlashtirish; zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiya; turli formatdagi savollarni (ko‘p tanlovli, qisqa javobli, moslashtirilgan) yaratish imkoniyati.

Taklif qilinayotgan metodikamizning asosiy bosqichi yig‘ilgan ma’lumotlarni oldindan qayta ishlashdir. Ma’lumotlar tizimning o‘quv jarayonlariga mos kelishini va mavzuning to‘liq aks etganligi va chuqurligini qamrab olishini ta’minlash juda muhimdir. 3-rasmda ma’lumotlarni yig‘ish va oldindan qayta ishlash algoritmi keltirilgan.



3-rasm. Ma’lumotlarni yig‘ish va oldindan qayta ishlash algoritmi

Tadqiqotda taklif qilinayotgan **“Didactronix”** metodikasi qoidaga asoslangan filtrlash bir necha marta takomillashtirishni o‘z ichiga olgan iterativ jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Takroriy takomillashtirish jarayoni kerakli filtrlash aniqligi darajasiga erishilgunga qadar davom etadi. Baholash ko‘rsatkichlari qoidaga asoslangan filtrlash metodikasining ishlashini baholash vositasi sifatida muhokama qilinadi. Filtrlash jarayonining samaradorligini o‘lchash uchun aniqlik, eslab qolish va F1 ball kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar doimiy monitoring va takomillashtirish imkonini beruvchi filtrlash samaradorlikini miqdoriy baholashni ta’minlaydi. Tadqiqot doirasida bo‘lajak mutaxassislarining o‘z kasbiy faoliyatida test savollarini ishlab chiqish va ularni baholash bo‘yicha amaliy tajribalari tahlil etildi.


Ushbu metodikadan “Sun’iy intellektga kirish”, “Texnika tizimlarida axborot texnologiyalari” hamda “Katta hajmli ma’lumotlar bazasi” fanlari misolida dars jarayonlarida uch bosqichda amaliy qo‘llanildi:

1. Darsdan oldingi bosqich (tayyorlov jarayoni) – o‘qituvchi mavzu bo‘yicha avtomatik savollar bazasini tayyorlab oldi. Talabalarning kirish nazorati uchun savollar tuzilib, bilim darajasi aniqlandi.

2. Dars jarayonida (asosiy bosqich) – SI yordamida interaktiv test va savollar avtomatik yaratildi. Talabalarning javoblari real vaqt rejimida baholanib, o‘qituvchiga tahliliy natija ko‘rinishida taqdim etildi.

3. Darsdan keyingi bosqich (mustahkamlash va nazorat) – uy vazifasi va oraliq nazorat sifatida SI asosida turli darajadagi savollar ishlab chiqildi. O‘qituvchi natijalarni tahlil qilib, talabalar qaysi mavzuda qiynalayotganini aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijada, test tuzishga sarflanadigan vaqt tejaldi, har bir talabaga individual darajadagi savollar berish mumkin bo‘ldi.

Sun’iy intellekt yordamida avtomatik savol yaratish tizimining samarali ishlashi o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish bilan ham bog‘liq bo‘lib, bunda o‘qituvchi test tuzish jarayonining barcha bosqichlarini, savolning mohiyati va didaktik vazifalarini chuqur anglagan holda yakuniy natijani ko‘ra biladi. Bu jarayon o‘qituvchiga erishilgan natijalarni o‘quvchilarning bilim darajasi va rivojlanish ko‘rsatkichlariga muvofiqligini tahlil qilish orqali o‘z faoliyatini baholash imkonini beradi. Demak, sun’iy intellekt asosida avtomatik savol yaratish metodikasini qo‘llash bu faqat texnik jarayon emas, balki bilimlarni baholashda yangi sifat bosqichiga o‘tish, pedagogning o‘z ustida ishlashi va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir.



5-rasm Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida test savollarini avtomatik tuzish va baholash orqali talabalarni mutaxassislik faoliyatga tayyorlash modeli

Texnika fanlarini o'qitishda sun'iy intellekt yordamida avtomatik savol tuzish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tashkil etish uchun quyidagi tamoyillarni aniqladik:

1. Sun'iy intellekt yordamida avtomatik savol tuzish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tizimli ravishda bayon qilish, yangi metod va texnologiyalarni ilgari o'zlashtirilgan testologiya, pedagogik va AKT bilimlari bilan uzviy bog'lash. Bu tamoyil talabalarning tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish, ularning bilimlari orasida mantiqiy bog'liqlikni ko'ra olish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. O'quv materiallarini mavzular tavsifi, amaliy mashg'ulotlar tartibi va mustaqil ish shakllarida tayyorlash. Professor-o'qituvchilar majburiy va tanlov fanlarining o'quv materiallarini ishlab chiqishda sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqishi zarur.

3. SI yordamida avtomatik savol tuzish jarayonini samarali amalga oshirish uchun texnik (kompyuterlar, internet, dasturiy platformalar), o'quv-uslubiy (metodik qo'llanmalar, me'yoriy talablar) va tashkiliy (onlayn hamkorlik muhiti) sharoitlarni yaratish.

4. Savol tuzish metodikasida sun'iy intellektning yangi algoritmlarini joriy etish, test sifati va moslashuvchanligini oshirish, avtomatlashtirilgan tahlil va baholash funksiyalarini qo'llash.

5. SI yordamida test savollarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan metodlar, lingvistik tahlil, psixometrik ko'rsatkichlar va amaliy sinov natijalariga tayangan holda ishlash.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan test savollarini avtomatik tuzish va baholash modeli zamonaviy pedagogikaning metodik asoslarini tubdan yangilashga xizmat qiladi. Ushbu modelning afzalligi shundaki, u nafaqat talabalar bilimini o'lchash va monitoring qilish vositasi sifatida samarali ishlaydi, balki ularning kognitiv rivojlanishiga, tanqidiy tafakkurini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatadi. Mazkur modelda SI algoritmlari orqali test tuzish jarayonining avtomatlashtirilishi inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlikni kamaytirib, baholash jarayonining obyektivligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Modelning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi talabalarda avval bilimlar bazasini shakllantirish, so'ngra ko'nikmalar va malakalarni rivojlantirish, yakunda esa mustaqil test tuzish va baholash qobiliyatini yuzaga keltirish imkonini beradi. Metodik yondashuvlar va tamoyillar tizimi esa talabalarni faqat bilim egasi sifatida emas, balki tahlilchi, yaratuvchi va baholovchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Yakuniy natijada, talabalarda reproduktiv darajadan boshlab variativ, kreativ va innovatsion darajalargacha bo'lgan qamrovli kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa ularni nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi, balki yangi bilim va metodologiyalarni ishlab chiquvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Shunday qilib, mazkur model ta'lim tizimini raqamlashtirish va intellektuallashtirish yo'lida metodologik asos bo'lib xizmat

qiladi hamda talabalar bilim faoliyatini optimallashtirishning samarali mexanizmini yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Mutaxassislik fanlarini o‘qitish va o‘zlashtirishning ta’lim boshqaruv tizimlari ko‘rsatkichlari uchun ASY tizimini ishlab chiqish va joriy etishning pedagogik eksperimental ish tavsifi va uning samaradorligi”** nomli uchinchi bobida savollar yaratishning avtomatlashtirilgan tizimi algoritmi ishlab chiqilib, ushbu algoritm yordamida yaratilgan savollarning sifati va mosligi tahlil qilingan. Shuningdek, texnika fanlarini o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini samarali boshqarish maqsadida Ta’lim Boshqaruv Tizimlari (TBT) ko‘rsatkichlari asosida avtomatlashtirilgan savol yaratish (ASY) tizimi ishlab chiqilgan hamda uning pedagogik eksperimental sinov ishlari va samaradorligi asoslab berilgan.

Taklif etilayotgan modulli dizayn yangi xatti-harakatlarni oson integratsiya qilish va sinab ko‘rish imkonini beradi. Evristik yondashuvlarga asoslangan oddiy prototip xatti-harakatlari amalga oshirildi. Keyinchalik murakkab xatti-harakatlar kelajakdagi rivojlanish mavzusi bo‘ladi. Ramka (freym) komponentlari, “ExercisesCreator” va “ExercisesGrader”dan tashqari, bir-biri bilan bevosita ta’sir o‘tkazmaydi, balki ma’lumotlar bazasida saqlangan natijalar (bilim grafiklari va mashqlar) orqali o‘zaro aloqa qiladi. Har bir sessiya uchun baholash tayinlanadi, bu foydalanuvchining yakuniy reytingi va noto‘g‘ri yoki aloqasiz deb belgilangan mashqlar nisbati og‘irlangan yig‘indisi sifatida hisoblanadi.

Qaysi xatti-harakatlarning qaysi sessiyalarda ishtirok etganini bilganimiz sababli, biz 4-tuple xatti-harakatlar $p(x_1, x_2, x_3, x_4)$ o‘rtacha samaradorligini hisoblashimiz mumkin. Har bir yangi sessiya boshlanishida, qisman tasodifiy tarzda tanlangan 4-tuple xatti-harakatlar (k_1, k_2, k_3, k_4) (k_1 bilim quruvchisi, k_2 mashq yaratishchi va hokazo) avvalgi yaxshi samaradorlikka ega bo‘lgan xatti-harakatlarga ustunlik beradi. Ideal holda, ma’lum bir 4-tuple tanlash ehtimoli uning kutilgan nisbiy samaradorligiga (boshqa 4-tuplelarning kutilgan ishlashlariga nisbatan) proporsional bo‘lishi kerak. Kelajakni bilmasligimiz sababli, kutilgan ishlash uchun eng yaxshi taxminimiz bu o‘tgan davrdagi ish faoliyati hisoblanadi. Shartli ehtimollikdan foydalanib, xatti-harakatlar (x_1, x_2, x_3, x_4) tanlash ehtimoli P uchun formulalarni osonlik bilan olishimiz mumkin “Har qanday xatti-harakat” degan ma’noni ifodalash uchun yulduzcha (*) ishlatilgan, masalan, $p((x_1, *, *, *))$ bu bilim quruvchisi x_1 bo‘lgan barcha sessiyalarning o‘rtacha ish faoliyatini anglatadi.

$$P(k_1 = x_1) \propto p((x_1, *, *, *)),$$

$$P(k_2 = x_2 | k_1 = x_1) = \frac{P(k_1 = x_1 \wedge k_2 = x_2)}{P(k_1 = x_1)} \propto \frac{p((x_1, x_2, *, *))}{p((x_1, *, *, *))},$$

$$P(k_3 = x_3 | k_1 = x_1 \wedge k_2 = x_2) = \frac{P(k_1 = x_1 \wedge k_2 = x_2 \wedge k_3 = x_3)}{P(k_1 = x_1 \wedge k_2 = x_2)} \propto \frac{p((x_1, x_2, x_3, *))}{p((x_1, x_2, *, *))},$$

$$P(k_4 = x_4 | k_1 = x_1 \wedge k_2 = x_2 \wedge k_3 = x_3) = \dots \propto \frac{p((x_1, x_2, x_3, x_4))}{p((x_1, x_2, x_3, *))}.$$

Savolning murakkablik ahamiyati berilgan tekst va mashq orasidagi kosinus o'xshashligi orqali aniqlanadi, bu tekst yoki mashqdagi so'zlarni ularning chastotasiga mos keladigan sparsing vektorlar sifatida ifodalanganida, ular orasidagi burchakning kosinusi hisoblanadi. Ikki formula (tekst A va mashq E) orasidagi kosinus o'xshashligi formulasi quyidagicha:

